



YOSHLARIMIZNI G'OYAVIY XURUJLARGA QARSHI HIMOYALASHNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MASALASI

Javohirbek Karamov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti, Qarshi tumani 2-
umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi(91)9629343.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7898290>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil
Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil
Nashr qilindi: 05-May 2023 yil

KEY WORDS

yoshlar, g'oyaviy xurujlar, kiberhujum, axborot, internet, himoy

ABSTRACT

Bu maqolada bugungi tahlikali zamonda yoshlarning kelajakda o'z yo'llaridan adashmay aniq maqsadlariga yetish yo'llarini ochishga harakat qilinadi. Yoshlarga bo'lgan davlat siyosati va uning qanchalik to'g'riligi va hozirgi kundagi ahamiyatini biz ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Xalqimizni va ayniqsa yoshlarimizni g'oyaviy xurujlardan himoyalash usullari va bunga sababchi bo'ladigan axborot xujumlari haqida so'z yuritamiz. Yana bir qiziqarli masala yoshlarning internetdan tartibsiz foydalanishi va uning salbiy oqibatlari haqida fikrlar keltirilgan.

Hozirgi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonda har bir davlat, xalq, millat va elatlar o'sib borayotgan yoshlarining kelajagiga befarq bo'lolmaydi albatta. Shuning uchun har bir davlat o'z siyosatida yoshlar masalasini yuqori o'rinlardan biriga qo'yadi. Bizning davlatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham quidagi iboralarini aytib o'tdilar "Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

G'oyaviy xurujlarga qarshi himoyalash uchun biz buning nima ekanligini bilib olishimiz zarur. G'oyaviy xurujlar bu- bir tuzumdan boshqa bir tuzumga o'tish davrida odamlar ongida g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ladi va manashu bo'shliqdan o'z g'arazli niyatlatini amalga oshirish uchun diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik, narkobiznes, xalqaro terrorizm, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi ommaviy axborot tizimlari tarafdorlari foydalanishidir. Bularning asl niyatlari xalqning beqiyos boyliklariga egalik qilish, qalqimizni o'z siyosati, o'z hukmronligiga bo'ysundirishni, eng yomoni, xalqning o'zi uchun muhim geopolitik maydonini o'z ta'sir doirasiga olishdan iboratdir.

Biz davlatimizning qadri, jonajon va mehnatsevar xalqi sifatida shuni bilamizki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'z boshidan juda ham ko'p sinovlarni yengib o'tdi. Buni yengib o'tishda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov janoblarining o'rni beqiyosdir. Qanchadan qancha yurtdoshlarimiz manashu buzg'unchi g'oyalar tuzog'iga tushib, aldanib

o'zga yurtlarda (Suriya, Falastin, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston va b.) xor buldilar. Bu yerda qolgan ularning yaqinlari qanchadan qancha azoblandilar. Davlatimizning oqilona siyosati tufayli ularni o'z yurtiga qaytarish va bunday holatlarni oldini olish uchun barcha chora tadbirlar amalga oshirildi va davom ettirilmoqda. Bunga misol qilib, "Mehr" operatsiyalari tufayli Yaqin Sharq va Afg'oniston hududigan yuzlab aldangan xalqimizni qaytarilishini aytishimiz mumkin. Ularni ichida albatta yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mamlakatimiz aholisini 32 foizini ya'ni 10 mlndan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Albatta g'arazli niyatdagilar shu yoshlarimizdan foydalanishga harakat qiladilar. Chunki ularning ma'naviyatida g'oyaviy bo'shliqlar juda ko'p bo'ladi. Davlat va jamiyatimizning vazifasi esa yoshlarimizni oqilona va ilg'or fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalashdir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillari va XXI asr boshlarida buzg'unchi g'oyalarni asosan kitoblar, qo'llanmalar, disklar va kassetalar orqali yoki o'zlarining har tomonlama tayyorlangan vakillari orqali targ'ib qilganlar. Hozirgi kunga kelib esa ularning g'oyalarni asosan kiber hujumlar tashkil qilmoqda. Kiberhujum yoki boshqa tillarda kiber bezorilik -bu odamni bezovta qilish uchun kompyuter vositalaridan foydalanadigan taqib qilish usuli. So'z inglizcha so'z bilan tuzulgan bezorilik, bu ta'qib va qo'rqitishni anglatadi. Shunday qilib, kiberhujum bir guruh shaxslar tomonidan shaxsni vaqt o'tishi bilan doimiy va takroriy ta'qib qilish, suiiste'mol qilish va kamsitish holati. Kiberhujumni amalga oshiradigan shaxslar o'z o'ljasini har tomonlama o'ziga qaram qilib olishga harakat qiladi. Shunday vaziyatda birinchi o'rinda yoshlarimizning o'zida manashu hujumlarga qarshi himoya-g'oyaviy kuch bo'lishi zarur va jamiyatimizning har bir a'zosi shunday holatni sezganidan darhol qo'lidan keldan ehtiyot choralarini ko'rishi insoniy fazilatlarimizning qanchalik ijobiylikni ko'rsatadi.

"Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqotidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim", deb o'ylayman deyдилar birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Bunga ommaviy axborot vositalarining o'rni juda ham muhim.

Axborot XXI asrda davlatlarning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi kuchga aylanib bormoqda. Soxta axborotlar insonning qalbini, ongini, ruhiy dunyosini zaharlaydi, insonni kelajakka bo'lgan ishonchini poymol qiladi, shuurida ikkilanishni paydo qiladi. Qulog'iga xabar bo'lib kirsada, bizning ongimizni o'qday jarohatlaydi.

Bugungi davrda yer yuzining turli joylarida yuzaga kelayotgan mojarolar, urushlar, terrorizm balosining ko'payishiga bundan manfaatdor tashqi kuchlar ta'siri ostidagi ommaviy axborot vositalarining informatsion xurujlari ham sabab bo'lmoqda.

Insoniyatning rivojlanish tarixini o'rganish, ijtimoiy o'sishning turli bosqichlarida inson hayoti va uning salomatligiga zarar yetkazuvchi turli zararli omillar mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Insonning yashashiga salbiy ta'sir qiluvchi xavflarni sodir bo'lish holati va ta'siridan kelib chiqib ikki guruhga ajratish mumkin: 1) tabiiy xavf; 2) ijtimoiy xavf.

Tabiiy xavf – bu tabiat qonuniyatlariga muvofiq ro'y beradigan xavf bo'lib, ko'p hollarda uni bartaraf etish mashaqqatga aylanmoqda. Masalan, ilm-fan, texnika va texnologiya yuksak darajada rivojlangan mavjud sharoitda ham yer yuzining turli xududlarida turli joylarida sodir bo'layotgan suv toshqinlari, dovullar, ekologik inqirozning oldini olishga muvaffaq bo'linmayapti. Ibtidoiy tuzum kishilari uchun eng katta xavf – bu tabiiy xavf, ya'ni, tabiiy ofatlar edi. Babiiy jarayonlar mohiyatini to'g'ri baholay olmagan kishilar tabiat tomonidan

yuzaga keltirilgan xavfning oldida butunlay o'jiz edilar. Bugungi kunda ham tabiiy xavf mavjud va u insoniyat hayotiga, salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib turibdi. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, global tabiiy xavfning kelib chiqishiga asosiy sababchi insonning o'zi. Global isish, azon qatlamining yemirilishi, ekologik inqiroz kabilarning yuzaga kelishida bevosita inson omili yetakchi o'rinni egallamoqda.

Ijtimoiy xavf – bu inson faoliyatining deyarli barcha turlari uchun amal qiladigan jiddiy tushuncha.

Angliyalik tadqiqodchi Maykl Halm kompyuter va mobil texnologiyalarini qurshoviga hozirgi 16 yoshgacha bo'lgan o'sayotgan yoshlarni “raqamli obonentlar” deb atadi. Bu toifaga kiruvchi yoshlar orasida individualizm, egotsentirizm sifatlari tarqala borayotgani guvohi bo'lmoqdamiz. Internetga haddan tashqari mukkasidan ketish yoshlarni do'stona muloqotga ehtiyojini susaytirib bormoqda. Hozirgi dunyoda globallashuv jarayonida “Dunyo hukumati”, “Dunyo fuqarosi” degan atamalar paydo bo'layotgani bejiz emas. Bu yer yuzida g'arbona andozalarga asoslangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan yagona tamaddud yaratishga intilishda namoyon bo'lmoqda. Bu g'arazli niyatlar faqatgina milliy mustaqillikka erishgan mamlakatlarning emas, balki butun dunyodagi davlatlarning rivojiga ham juda katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ma'lum.

Psixologlarning e'tirof etishicha, hozirgi davrda kompyuter o'yinlariga muhtalo bo'lgan yoshlarning soni ortib bormoqda. Bu holatni mutaxassislar “Ludomaniya” (lot. ludo - o'ynayman, o'yinga mukkasidan ketish) deb baholashmoqda. Bu illatga muhtalo bo'lganlar kompyuter yoki gadjetlarni o'ynamasa, depresiyaga tushib qoladi. Hozirgi internet foydalanuvchilarining asosiy qismini yoshlar tashkil qilayotganligi muammoning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Ba'zi ota-onalarning farzandi nima ishlar qilib yurganligidan bexabarligi uchun o'smir va yoshlar o'zlarining oltindan qimmat va muhim vaqtlarini internet klublarda sovrarmoqdalar. Ayrim ota-onalar bir marotaba ham internet tarmog'iga kirib ko'rmagan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ular shuning uchun ham farzandlarining salbiy ta'sirga ega g'oyalar sirtmog'iga tushib qolishini bilmaydilar va oldini ololmaydilar. Shaharlar hududidagi umumiy internet o'yinlari o'ynovchilarining asosiy qismi 10-15 yosh atrofidagi mijozlardir. Ularning ba'zilari ertalab maktabga ketyapman, deb chiqadi-yu, maktabga emas, to'g'ri internet klublarga boradilar. Ota-onasi yegulikka bergan pulini 'kompyuterchi aka'ga beradi va soatlab o'yin o'ynashga mukkasidan ketadi. Kompyuter ekranida bir-birini do'pposlagan, bir-birini quvgan, bir-biriga o'q otgan va vahshiylarcha pichoqlagan o'yin qahramonlariga qiziqib, og'zidan qo'pol so'zlar chiqib ketayotganini ham bilmay qolayotgan bu yoshlarimizga qarab turib achinasan kishi.

Ma'lumki, internetdagi ko'pchilik o'yinlar kishi ongini zararli tomonga o'zgartirib yuboradi. Bunga o'xshash o'yinlarni targ'ib qiluvchi saytlar “g'oyaviy virus” saytlari deb ataladi. Bunga qonho'rlik, vahshiylik, o'g'rilik, zo'ravonlik kabi illatlarni targ'ib etadigan o'yinlarni misol keltirish mumkin. Internetdagi fahsh sahifalardan foydalangan yoshlarning oila to'g'risidagi qarashlari salbiy tomonga o'zgarib ketishi mumkin. Ba'zi o'smirlarning o'ta salbiy bo'lib qolayotganligining asosiy sabablaridan biri ana shunday o'yinlardir. Bizning fikrimizcha, Hozirgi tahlikali davrda yoshlarni internetning salbiy illatlaridan himoyalash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, ota-onalar o'z farzandi uchun ma'sul ekanini his qilib, bolalarining bo'sh

vaqtlarini qanday o'tayotganligidan boxabar bo'lishlari shart.

Ikkinchidan, mahalla-tarbiya maskani. Ota-ona uyda, mahalla – ko'cha-kuyda o'smir xulqidan ogoh bo'lib turishi lozim.

Uchinchidan, maktab ma'muriyati o'smir maktabdan to'g'ri uyga boryaptimi yoki boshqa joylargami? Buni bilishi kerak. Buning uchun oila, maktab va mahalla shu masalada yakdil bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, Internet klub nazoratchilari bolaning kompyuterda nima bilan shug'ullanayotganini bilib, nazorat qilib, o'smirlarning ta'qiqlangan saytlarga kirmasliklarini ta'minlashi kerak.

Beshinchidan, internet klublarini ro'yhatga olgan muassasa, mahalla raislari yoki mahalla ularning qanday faoliyat olib borayotganligini nazorat qilib turishlari zarur. Internet klublarining tungi ish faoliyatiga chek qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yurtimizga nisbatan qilinayotgan g'oyaviy va axborot hurujlariga qarshi kurashda ba'zan "It huradi, karvon o'tadi" qabilida ishlash o'rinlidek ko'rinadi. Yoki, jamiyatimizda bunday holatlar arziyas narsadek tuyuladi. Biroq, fikrimizcha axborot hurujlari kimlar, qaysi tuzulmalar tomonidan, nima maqsadda tashkil qilinayotganligi aniqlab, ularga qarshi barcha zaruriy choralarini ko'rishimiz shart. Axborot hurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli bo'lishligi, uning zarur huquqiy ba'zasi shakllantirilganligi o'ta muhim. Shu bois axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilish masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, yoshlarimiz va butun xalqimizni bunday hurujlardan himoya qilishda va ularga qarshi kurashda quidagilarni muhim deb bilamiz:

1. Axborot olamini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar, aholining va ayniqsa, yoshlarimizning qiziqishi yuqori bo'lgan masalalar haqidagi ob'ektiv va pozitiv axborot bilan doimiy ravishda to'ldirib borish.
2. Fuqarolarimizni internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan umumiy choralar ko'rilishi kerak. Xususan yoshlarimizni tafakkur qilishga, har qanday axborotni tahlil qilib va tanqidiy yondashib so'ng xulosa chiqarishga o'rgatishimiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.
3. Mamlakatimiz, davlat apparati, rahbarlar haqida noto'g'ri ma'lumotlar, tuhmat, uydurmalar va buzulgan axborot tarqatuvchi har qanday axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo'yish lozim. Iloji boricha xato ma'lumotlar aylanmasiga barham berish.
4. Aholiga chet ellarda turib mamlakatimiz to'g'risida noto'g'ri, bir tarafning maqsadini o'ylab axborot tarqatuvchi axborot vositalari, shaxslarning asl qiyofasini ochib beruvchi faktlarni tarqatish.
5. Milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat tushunchalari, shu jumladan fuqarolarimizning vatanparvarligi va o'z xalqiga muhabbat axborot xurujlariga qarshi asosiy omildir. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarimizni yanada izchillik bilan amalga oshirishimiz zarur.
6. "Beshinchi kolonna" (Ispaniya respublikasida 1936-1939-yillardagi urush davrida general Franko agenturasining nomi. Fashist isyonchilarining 4 kolonnasi Madridga hujum qilayotgan vaqtda ular shahar ichkarisida beshinchi kolonna bo'lib jangga kirishgan, "Beshinchi kolonna" atamasi shundan kelib chiqqan. Ikkinchi jahon urushi davrida bu atama turli mamlakatlardagi fashistlar agenturasining shartli nomi.) ni aniqlash va ularga nisbatan tegishli choralarini ko'rish tizimli tarzda davom ettirilishi kerak. Chunki aynan "beshinchi

kolonna” tashqi kuchlarning buzg’unchi g’oya va axborotlarini tarqatishda vositachi vazifasini bajarishadi. “O’zingdan chiqqan baloga-qayga borasan da’voga” degan naqlga giriftor bo’lmaslik uchun ularni oldini olish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, har qanday tarbiya ikki tomonlama jarayonligini, bola nafaqat tarbiyaning obyekti, shuningdek subyekti ham ekanligini nazarda tutsak, bolalarning boshqalardan olayotgan o’rnagi shaxsiy kuzatuvlari uning qanday inson bo’lib shakllanishida katta rol o’ynashi oydinlashadi. Jamiyatdagi shiorlarning, mafkuraviy targ’ibot va tashviqotlarning hayotga, haqiqatga mosligi yoki mos emasligi yoshlarga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Shu sababdan tarbiya jarayonida haqiqiy qiyinchiliklarni, muammolarni ulardan yashirmaslik, faqat sabablarini to’g’ri tushuntirish kerak. Yarim haqiqatni aytish, faqat yutuqlarini ko’z-ko’z qilib kamchiliklariga e’tibor bermaslik, o’z xatolarimiz borligini tan olmaslik biz aytmoqchi bo’lgan tarbiya ishiga zaraz keltiradi.

Biz kelajak avlodni har tomonlama yuksak tarbiyali, bilimli, irodali, e’tiqodli va erkin fikrli qilib tarbiyalamoqchi va jahonda bo’layotgan har qanday jarayonlarga o’zining munosabatini tezda bildira oladigan qilib voyaga yetkazmoqchi bo’lsak, farzand tarbiyasidagi kichkinagina qism bo’lsa ham unga ta’sir qiladigan arzimas hodisa bo’lsa ham bunday holatlarga otionalarni va jamiyatning har bir ongli a’zolarini etiborli bo’lishini uqtirishimiz zarur deb bilamiz

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik o’zbekiston davlatini birgalikda barbo etamiz . T., O’zbekiston. 2016
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., O’zbekiston. 2022
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., Ma’naviyat. 2008
4. Mellev X, tadqiqotchi. Axborot hurujlariga qarshi samarali kurashning ustuvorligi. OAV, O’zbekiston. 2016
5. Nurboyev Sh.A. O’quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish. Samarqand. 2016
6. Maxrutdinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. T., Akademiya. 2006
7. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T., O’zbekiston. 2000